

“TASDIQLAYMAN”
**“O‘zbekiston texnologik metallar
kombinati” AJ Boshqaruv raisi**
F.R Abdullayev
2026 y.
139-01/03

TEXNIK TOPSHIRIQ

ISO 26000 (Ijtimoiy mas’uliyat bo‘yicha qo‘llanma), ISO 27001 (Axborot texnologiyalari.
Xavfsizlikni taʼminlash usullari. Axborot xavfsizligini boshqarish tizimlari) va
ISO 50001 (Energiya menejmenti tizimlari) xalqaro standartlariga muvofiqligini qayta
sertifikatlash bo‘yicha ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun

Chirchiq shahri – 2026 yil.

Texnik topshiriqning maqsadi

“O‘zTMK” AJning Markaziy apparati va umumiy shtat soni 1529 nafar bo‘lgan 3 ta obyektini qamrab olgan holda, boshqaruv tizimini ISO 26000, ISO 27001 va ISO 50001 talablariga muvofiq, xalqaro va milliy sertifikatlash tizimida sertifikatlar berish orqali (xizmatlar)ni bajarish, shu jumladan 3 ta obyektini IMS talablariga muvofiqligini tasdiqlash.

Asosiy ma’lumotlar va talablar

Bo‘lim	Mazmuni
Ishlarning to‘liq va shartli nomi	“O‘zTMK” AJning integratsiyalashgan menejment tizimini qayta sertifikatlash bo‘yicha ishlar (xizmatlar)ni bajarish, shu jumladan Markaziy apparat va umumiy shtat soni 1529 nafar bo‘lgan 3 ta quyi tarkibiy bo‘linmani ISO 26000, ISO 27001 va ISO 50001 xalqaro standartlari talablariga muvofiq xalqaro va milliy sertifikatlash tizimida sertifikatlar berish orqali sertifikatlash.
Buyurtmachi	“O‘zTMK” AJ (matnda keyingi o‘rinlarda — “Buyurtmachi”). Manzil: 111709, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Vohid Haydarov ko‘chasi, 1-uy.
Buyurtmachining asosiy tavsiflari	Korxonaning to‘liq nomi: “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ <i>Sanoat uchun muhim minerallarni qazib olish, foydali komponentlarni ajratib olish va qayta ishlash.</i> <i>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-maydagi PQ-182-son qarori.</i>
Ijrochi	Mazkur Texnik topshiriq bo‘yicha ijrochi tanlov natijalariga ko‘ra aniqlanadi.
Ishlarni bajaruvchi ijrochiga qo‘yiladigan talablar	Tender/tanlovda ishtirok etish uchun ruxsat berish talablari: Ishlarni bajaruvchi ijrochi — ushbu texnik topshiriqqa muvofiq faoliyat turini amalga oshirish uchun

qonunchilikda nazarda tutilgan zarur ruxsat beruvchi hujjatlarga (guvohnomalar, litsenziyalar, sertifikatlar, ruxsatnomalar va/yoki boshqalar) ega bo'lgan yuridik shaxs bo'lishi, shuningdek:

- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatida bo'lmasligi;
- Buyurtmachi ("O'zTMK" AJ) bilan sud yoki arbitraj muhokamasi holatida bo'lmasligi, Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganlik holatlari mavjud bo'lmasligi;
- tanlov taklifining amal qilish muddati davomida uni ta'minlashi;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorligi bo'lmasligi;
- insofsiz ijrochilar yagona reyestrda mavjud bo'lmasligi kerak.

Tender/tanlov ishtirokchilarining malakasi va tajribasiga qo'yiladigan mezonlar:

1. ISO 26000, ISO 27001 va ISO 50001 bo'yicha amal qiluvchi milliy akkreditatsiyaga ega bo'lishi kerak (2024-yil 14-avgustdagi VMQ 502-son qarorining 4-ilovasi 2-bobi asosida).
2. ISO ISO 26000, ISO 27001 va ISO 50001 bo'yicha IAF/MLA doirasida tan olinadigan xalqaro e'tirof etilgan Yevropa akkreditatsiyasiga ega bo'lishi kerak.
3. ISO/IEC 17011, 7.8.1-bandiga muvofiq, Yevropa xalqaro e'tirof etilgan sertifikatlashtirish organining O'zbekistonda faoliyat yuritishini tasdiqlovchi Yevropa akkreditatsiya organi hujjatiga ega bo'lishi kerak.
4. ISO 26000, ISO 27001 va ISO 50001 bo'yicha IAF/MLA doirasida tan olinadigan sertifikatlar qaysi Yevropa xalqaro e'tirof etilgan sertifikatlashtirish organi nomidan berilishini tasdiqlovchi rasmiy kelishuvga ega bo'lishi kerak.

5. Auditlar ISO/IEC 17021-1, IAF MD 1, IAF MD 5 va IAF MD 11 talablari asosida qat'iy o'tkazilishi, uch yillik sikl bo'yicha ish hajmi haqida ma'lumot taqdim etilishi kerak.

6. So'nggi 5 yil ichida Sertifikatlashtirish organining milliy akkreditatsiyasi 1 oydan ortiq muddatga to'xtatilmagan va bekor qilinmagan bo'lishi kerak. Buni GUP "O'zbekiston akkreditatsiya markazi"ning rasmiy xati yoki VMQ №349 asosidagi reyestr havolalari bilan tasdiqlash lozim.

7. ISO standartlari bo'yicha yuqori xalqaro tan olingan kompetensiyaga ega, IRCA, EOQ, EAASS, CMC, EAACR kabi mustaqil xalqaro tan olingan tashkilotlarda sertifikatlangan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan kamida 2 nafar shtat auditori mavjud bo'lishi kerak.

8. Sertifikatlashtirish faoliyati sohasida qonunbuzilishlarni ko'rsatuvchi sud qarorlari va sud muhokamalari mavjud bo'lmasligi kerak.

9. O'zbekiston Respublikasida o'xshash tarmoq korxonalarini sertifikatlash bo'yicha ijobiy tajribaga ega bo'lishi kerak. Turli ISO standartlari bo'yicha kamida 3 ta tashkilotning amal qiluvchi sertifikatlari va ijobiy tavsiyanomalari taqdim etilishi lozim.

10. ISO 26000, ISO 27001 va ISO 50001 bo'yicha IAF/MLA doirasida tan olinadigan Yevropa xalqaro sertifikatlari majburiy ravishda xalqaro reyestrda, jumladan IAF (iafcertsearch) reyestriga kiritilgan bo'lishi kerak.

Ijrochi quyidagilarni asosli ravishda kafolatlashi lozim:

- ishlar (xizmatlar) sifatini ta'minlash;
- olingan axborotdan foydalanishda xavfsizlik va maxfiylikka rioya etish;
- Buyurtmachi obyektlariga tashrif chog'ida kirish-chiqish rejimi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi talablariga rioya etish;

	<ul style="list-style-type: none"> • korrupsion holatlarga yo‘l qo‘ymaslik.
Ishlab chiqish uchun asos	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-25-son Farmonining 8-bandi hamda 5-ilovasi 9-bandi va “O‘zbekiston TMK” AJning 2026-yil 18-fevraldagi 13-sonli buyrug‘iga muvofiq “O‘zTMK” AJ boshqaruv tizimining ISO 26000, ISO 27001 va ISO 50001 xalqaro standartlari talablariga muvofiqligi bo‘yicha sertifikatlash.
Ishlarning rejalashtirilgan boshlanish va tugash muddatlari	<p>IMSni sertifikatlashga tayyorgarlik davri: 2026-yil 3-chorak.</p> <p>Sertifikatlash auditlarini o‘tkazish muddati: 2026-yil 3-chorak. Sertifikatlarni 2026-yil yakunigacha berish.</p> <p><i>Ishlarning boshlanish va tugash sanalari tomonlar kelishuviga ko‘ra shartnomada Ijrochi bilan birgalikda belgilanadi.</i></p>
Moliyalashtirish manbalari	Mazkur loyiha bo‘yicha ishlarni moliyalashtirish manbai Buyurtmachining o‘z mablag‘lari hisoblanadi.
Ish natijalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibi	Ish natijalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibi tomonlar kelishuviga ko‘ra shartnomadagi ishlarni bajarishning kalendar rejasida belgilanadi.

ISHLAB CHIQLDI:

ESG departamenti direktori



S. Murodov